

**HIKMAT AN'ANASI RIVOJIDA YASSAVIY MAKTABI IZDOSHLARINING  
O'RNI**

(O'zbek adabiyoti misolida)

**Azimova Nozima Shokirjon qizi,**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi*

*O'zbekiston Milliy universiteti magistranti*

*Email: [nozimaazimova29@gmail.com](mailto:nozimaazimova29@gmail.com)*

*<https://orcid.org/0009-0003-5650-9121>*

**Annotatsiya.** *Xoja Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf she'riyatining asoschisi bo'lib, uning ma'rifiy va axloqiy g'oyalari keyingi asrlarda ko'plab adiblarning ijodiga ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sir natijasida yuzaga kelgan Yassaviy maktabi shoirlarining asarlarida nafs tarbiyasi, axloq pokligi va ruhiy yuksalish - bosh mavzulardan bo'lib kelgan. Mumtoz adabiyotimizda tasavvufiy mavzularning rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan Hikmatnavislik an'anasi davrlar o'tib turli saviyadagi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu maqolada Yassaviy maktabi shoirlarining o'zbek adabiyoti hikmat an'anasiga ta'siri, hikmatnavislik an'anasining genezisi va janr xususiyatlari haqida o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga doir fikr va mulohazalar yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Xoja Ahmad Yassaviy, Hikmat maktabi, Tasavvuf, adabiyot, Fitrat, hikmat an'anasi, hikmatnavislik genezisi.*

**Аннотация:** *Ходжа Ахмед Яссави был основоположником турецкой мистической поэзии, и его просветительские и нравственные идеи оказали влияние на творчество многих писателей последующих столетий. В результате этого влияния в творчестве поэтов школы Яссауи основное внимание уделялось самодисциплине, нравственной чистоте и духовному возвышению. Традиция Хикматнависа, оказавшая значительное влияние на развитие мистических тем в нашей классической литературе, на протяжении многих лет изучалась учеными разного уровня. В данной статье рассматривается влияние поэтов яссавийской школы на традицию хикмат в узбекской литературе, а также приводятся размышления и выводы по исследованиям узбекских ученых, посвящённым генезису и жанровым особенностям традиции хикматнавислик.*

**Ключевые слова:** *Ходжа Ахмед Яссави, школа хикмата, суфизм, литература, Фитрат, традиция хикмата, генезис хикматописания.*

**Abstract:** *Khoja Ahmed Yassawi was the founder of Turkish mystical poetry, and his educational and moral ideas influenced the work of many writers in the following centuries. As a result of this influence, the works of the poets of the Yassawi school focused on self-discipline, moral purity and spiritual elevation. The tradition of Hikmatnavis, which had a significant impact on the development of mystical themes in our classical literature, has been studied by scholars of various levels for many years. This article discusses the influence of poets of the Yassavi school on the tradition of hikmat in Uzbek literature, as well as reflections and considerations on studies conducted by Uzbek scholars regarding the genesis and genre characteristics of the hikmatnavislik tradition.*

**Keywords:** *Khoja Ahmad Yassavi, hikmat school, Sufism, literature, Fitrat, hikmat tradition, genesis of hikmat writing.*

**Kirish.** *Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-ta'limiy qarashlari va she'riyati bilan turkiy xalqlar tarixida o'chmas iz qoldirganligi tarixdan ayon. U o'zining ta'limiy-axloqiy tushunchalarini asosan hikmatlari orqali bayon etdi. Ulug' purning ta'limoti ta'sirida shakllangan adabiy-tasavvufiy maktab ko'plab shoirlarni bir an'ana atrofida birlashtirdi. Bu maktabning asosiy xususiyati ma'rifiy fikr va g'oyalarni xalqchil tilda, she'riy tarzda ommaga yetkazishdir.*

**Adabiyotlar tahlili.** XIX asrga kelib g'arbda Ahmad Yassaviyga qiziqish rus, nemis, ingliz, mojar olimlari, sharq dunyosida turk, ozarbayjon, tatar, boshqird, turkman, uyg'ur, qozoq, qirg'iz olimlari tomonidan bir qancha ishlar bajarildi. Jumladan, o'zbek adabiyotida Fitrat "Ahmad Yassaviy", "Yassaviya maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar", Qosimov B. "Hikmatlar she'riyati", E.Rustamov "Ahmad Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi", Usmonov U, Hoshimxonov M "Turkiston mulkinging shayx-ul mashoyixi", Haqqulov I. "O'zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti (g'oyaviylik, izdoshlik, obrazlar olami)", "Islom tasavvufi manbalari" Tuzuvchi, so'zboshi va izohlar muallifi f.f.d. X.Boltaboyev, N.Hasan "Yassaviylikka doir manbalar va"Devoni hikmat" monografiyasi, Maryam Eshmuhammedova "Yassaviy maktabi shoirlari", I. Mannopov "Yassaviylik adabiyotining genezisi, takomillashuvi va badiiyati"(DSc), S.Boqirg'oniy hikmatlari, Barnoxon Murodova "Ubaydullaxon-Yassaviyning munosib izdoshi" va bir qator tadqiqotlar e'tiborga molikdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada hikmat an'anasining o'zbek adabiyotidagi o'rni va miqyosi, hikmat janrining janr xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, tarixiy-adabiy, ilmiy-nazariy, qiyosiy, matnshunoslik va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Shu davrgacha qilingan tadqiqotlarda Yassaviy izdoshlari va hikmatnavislik genezisi asosan, umumiy aspektda o'rganilgan bo'lsa, mazkur ishda faqat o'zbek yassaviyshunos va adabiyotshunos olimlari tomondan bajarilgan tadqiqotlar jalb qilinmoqda.

**Tahlillar va natijalar.** O'zbek mumtoz adabiyotining muhim qatlamlaridan biri — hikmat an'anasidir. Hikmat janri Sharq adabiy tafakkurida axloqiy-falsafiy mazmun, tasavvufiy ramziylik va xalqona ifoda uslubini o'zida mujassam etgan adabiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bu an'ananing shakllanishida va mustahkamlanishida Xoja Ahmad Yassaviy va uning maktabi alohida o'rin tutadi. Yassaviy asos solgan hikmat an'anasi keyingi asrlarda uning izdoshlari orqali uzluksiz davom ettirilib, o'zbek adabiy tafakkurining muhim manbalaridan biriga aylandi.

Hikmatning genezisi (kelib chiqishi) va rivoji, asosan, "bilimdonlik, donishmandlik, aqllilik" ma'nosidan kelib chiqqan bo'lib, ilohiy vahiy (Qur'on), din, falsafa va ilmiy bilimlar orqali shakllangan, ayniqsa, islom sivilizatsiyasida "Bayt ul-Hikma" (Donishmandlik uyi) kabi markazlarda rivojlanib, inson ruhi, aqli va jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etgan. Lug'atlarda yozilishicha, hikmat – fikrlash malakasining o'rta holda bo'lishi; tadbiiq ila amalga oshuvchi, tajriba bilan erishiladigan to'g'ri bilim; to'g'ri bajarish, to'g'ri bilish va to'g'ri so'zlash; hamma narsaning eng mukammali; hikmat – bilimdonlik, donishmandlik, falsafa, maxfiy sir, aqlu haqiqatga to'g'ri keladigan nozik ma'noli qisqa so'z, masal; ashyoning ahvolidan: zohiriy va botiniy kayfiyatidan bahs etuvchi ilm; axloq va haqiqatga doir, Haqqa muvofiq, foydali va muxtasar so'z; aql, so'z va harakatdagi uyg'unlik; insonning mavjudot haqiqatlarini bilib, xayrli ishlarni qilish sifati, ashyoning ahvolidan, tashqi va ichki kayfiyatlaridan so'z

yuritishdir. Hikmat – aqli komil bilan ilmi oliy, mohiyati anglashilmas sabab va haqiqatdir. U nafaqat nazariy bilim, balki hayotiy tajriba, axloq va ilohiy tushunchalar bilan boyib, Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlar ijodida o‘zining yuksak cho‘qqisiga chiqqan. "Hikmat" so‘zi arabcha bo‘lib, Qur‘onda "Kitob" va "Donishmandlik" bilan bog‘liq, Alloh O‘zi xohlaganlarga hikmat beradi deyiladi.

Fitrat ham bu masalani asrimizning boshidayoq dolzarb mavzu sifatida e‘tirof etgan. Yassaviy maktabi ko‘p shoirlarni jamlaganini e‘tirof etgan holda “bu Yassaviy shoirlarining asarlari bo‘lsun, o‘zlari bo‘lsun haligacha tamoman ma‘lum bo‘lmag‘an, tekshirilmag‘an”ligini alohida qayd etadi. [1]

Fitrat adabiyot tariximizni davrlashtirar ekan, uchta muhim adabiy siymoni tilga oladi. Uning fikricha, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida uchta adabiy maktab faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardan birinchisi Ahmad Yassaviy, ikkinchisi Alisher Navoiy va uchinchisi Amir Umarxon adabiy maktablardir. Yassaviy maktabining boshqa maktablardan farqi, uning xonaqoh, ya‘ni “ibodat adabiyoti” bo‘lganligidir.[2]

Hikmat an‘anasining nazariy-estetik asoslari quyidagicha:

Hikmat — so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga ko‘ra donolik, chuqur ma‘no, hayotiy haqiqatni ifodalovchi hikmatli fikrni anglatadi. Adabiy termin sifatida esa hikmat tasavvufiy g‘oyalar, axloqiy pand-nasihati, ma‘rifiy qarashlarni she‘riy shaklda ifodalovchi janrdir. Hikmat so‘zining ma‘nosi ba‘zi Qur‘on tafsirlarida sobitqadamlik, ya‘ni so‘z va amalning birligi sifatida talqin qilinadi. «U O‘zi istaganga hikmat (foydali bilim) beradi» oyatining tafsirida kengroq ifodalanadi.

Hikmatlarning asosiy xususiyatlari tasavvufiy mazmun ustuvorligi, komil inson g‘oyasini targ‘ib etish, xalq tiliga yaqin sodda poetik shakl, ramziy va ishoraviy obrazlilik. Bu belgilar hikmatni nafaqat adabiy, balki ijtimoiy-ma‘naviy hodisa sifatida ham ahamiyatli qiladi. O‘zbek adabiyotida hikmat an‘anasining to‘liq shakllanishi Ahmad Yassaviy nomi bilan bog‘liq. Yassaviy “Hikmat” deb nomlangan she‘rlari bilan o‘zbek tasavvuf adabiyotiga asos soldi. Keyinchalik bu she‘rlar “Devoni hikmat” nomi bilan jamlanib, yozma adabiyot mulkiga aylantirildi. “Islomiyat ruhi ko‘hna xalq she‘riyati unsurlari – milliy she‘r shakli va vazni vositasida ifodalangan ilk badiiy asar bo‘lganligi sababli “Devoni hikmat”ni turkiy tasavvuf adabiyotining eng qadimgi va muhim obidasi deb hisoblash zarur”. Uning ushbu asari hikmatni mustaqil adabiy shakl darajasiga ko‘tardi. Yassaviy hikmatlarining asosiy g‘oyalari ilohiy ishq, nafsni tiyish, riyozat va sabr, ma‘naviy poklanish masalalariga qaratilgan. Yassaviy hikmatlarining muhim xususiyatlari xalqona va sodda til, og‘zaki ijroga moslik, tasavvufiy va didaktik mazmun uyg‘unligi, turkiy adabiy til taraqqiyotiga xizmat qilishidadir. Shu jihatdan, Yassaviy hikmatlari nafaqat adabiy, balki ijtimoiy-ma‘naviy hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ahmad Yassaviydan keyin hikmat an‘anasi uning izdoshlari ijodida davom etdi. Xususan, Sulayman Boqirg‘oniy (Hakim Ota), Zangi Ota, Sadr ota asarlarida hikmat

tasavvufiy mazmun bilan boyitildi. Bu maktab vakillari hikmatni xalq ongiga yanada yaqinlashtirdi, tasavvufiy g'oyalarni sodda badiiy shaklda ifodaladi, turkiy tilning adabiy imkoniyatlarini kengaytirdi.[3]

Yassaviy maktabi hikmatni xalq ma'naviyatining uzluksiz an'anasiga aylantirdi. Xoja Ahmad Yassaviy (XII asr) hikmat an'anasining asoschisi sifatida turkiy tasavvuf adabiyotiga mustahkam poydevor qo'ydi. Uning "Devoni hikmat" asari hikmat janrining klassik namunasi bo'lib, unda islomiy tasavvuf g'oyalari turkiy xalq ongiga mos, sodda va ta'sirchan uslubda ifodalangan.[4] Yassaviy hikmatlarida ilohiy ishq va ma'rifat yo'li, nafsni poklash va riyozat, banda va Haq munosabati, insoniy kamolot masalalari asosiy g'oyaviy yo'nalishni tashkil etadi. Shu jihatdan Yassaviy hikmatlari o'zbek adabiyotida tasavvufiy, ma'rifiy she'riyatning milliy shakllanishiga xizmat qilgan. Yassaviy maktabining muhim xususiyati — ustoz-shogird an'anasi asosida shakllangan izdoshlik tizimidir. Yassaviydan keyingi davrda uning shogirdlari va ruhiy izdoshlari hikmat an'anasini davom ettirdilar. Yassaviy maktabi izdoshlari hikmatlarni ko'paytirish va og'zaki-yozma tarzda tarqatish, tasavvufiy g'oyalarni mahalliy madaniy muhitga moslashtirish, hikmat poetikasini saqlagan holda mavzu va obraz doirasini kengaytirish orqali bu an'anani rivojlantirdilar. Masalan, Sulaymon Baqirg'oniy (Hakim ota) ijodida Yassaviy ta'limoti davom ettirilib, hikmatlarda axloqiy-tarbiyaviy ohang yanada kuchaydi. Bu hol hikmat an'anasining vaqt o'tishi bilan mazmunan boyib borishini ko'rsatadi.

Yassaviy maktabi orqali shakllangan hikmat an'anasi keyingi asrlarda o'zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy she'riyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Hikmat janri xalqona did va adabiy tafakkurga yaqinligi, ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatidagi roli, tasavvufiy va badiiy tafakkur sintezini ifodalashi bilan adabiy jarayonda barqaror mavqega ega bo'ldi. Hikmat va hikmatnavislik an'anasi bilan birgalikda mumtoz adabiyotimizga yangi hikmat janri kirib keldi. Hikmat an'anasi o'zbek adabiyotida nafaqat mustaqil janr sifatida, balki keyingi mumtoz she'riyat, tasavvufiy lirika va pand-nasihad adabiyotiga g'oyaviy asos bo'lib xizmat qildi. Xoja Ahmad Yassaviy targ'ibot vositasi sifatida she'riyatni tanlar ekan, arab, fors tasavvuf adabiyotiga taqlid qilmadi, balki "hikmat" deb atalgan yangi she'riy janrga asos soldi. Hikmat janri qadimgi turkiy she'riyat shakli (she'r tuzilishi, vazni, qofiyasi) hamda ijro xususiyatlari asosida yuzaga keldi. Ma'lumki, M. Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asarida miqdor jihatidan eng ko'p "kug" nomli she'riy shakl va vaznga oid namunalar keltirilgan.[5] Bu esa xalq orasida ancha mashhur bo'lganligi hamda keng qo'llanganidan dalolat beradi. Ahmad Yassaviy o'z hikmatlarining ma'lum bir qismini ana shu vaznda ifoda etdi.

Shunday qilib, Xoja Ahmad Yassaviy o'zbek mumtoz adabiyotida hikmat deb atalgan yangi janrga asos soldi. Hikmatlarning genezisini qadimgi turkiy she'riyatning quyidagi xususiyatlari tashkil etadi:

1. She'r vazni va tuzilishi. Hikmatlarda barmoq she'r tizimining o'n ikkilik turkumi (4+4+4) eng faol qo'llangan bo'lib, asosan to'rtliklar ko'rinishida aks etgan.

2. Ijroviylik xususiyati. Qadimgi turkiy adabiyotga oid doston, qo‘shug‘, yir, ko‘g‘ singari janrlarga oid asarlar “o‘zan”, “yirchi”, “baxshi”, “oqin”lar tomonidan ijro etilgan. Hikmatlar ham xalq orasida “hofiz”, “hofizbobo” deb yuritilgan she‘riyat va musiqa dan yaxshi xabardor bo‘lgan qobiliyatli insonlar tomonidan aytilgan.

3. Sinkretik xususiyati. Yir, ko‘g, yig‘i-yo‘qlovlar ijrosi so‘z va musiqa mushtarakligida yuzaga kelgan. Hikmatlar ham mungli musiqiy ohangda ma‘lum she‘riy vaznga solib ijro etilgan. [7.85]

Xoja Ahmad Yassaviyga qadar diniy-ma‘rifiy mazmunda she‘r aytish va yozish tajribasi turkiy adabiyotda mavjud bo‘lgan. Hikmat aytish an‘anasi esa quyidagi omillar asosida shakllandi:

- arab va fors tillardagi tasavvuf adabiyoti tajribalari ta‘siri;
- turkiy xalqlar og‘zaki ijodidagi diniy qo‘shiqlardan ilhomlanish;
- shaharlardan yiroqda yashovchi turkiy qavmlarning irfoniy- tasavvufiy g‘oyalarga qiziqishi tufayli ularning ma‘naviy ehtiyojini qondirish, irshod qilishda asosiy targ‘ibot vositasi sifatida og‘zaki she‘riyatni tanlash.

Xoja Ahmad Yassaviy vafotidan so‘ng yassaviya an‘analarini targ‘ib qilishda uning xalifalari muhim rol o‘ynadi. Xoja Ahmad Yassaviyning ilk xalifasi ustoz Arslonbobning o‘g‘li Mansur ota (vaf. 1197-98)dir. Mansur Otadan so‘ng uning o‘rniga o‘g‘li Abdumalik ota, undan so‘ng esa uning o‘g‘li Toj xoja shayxlik vazifasini bajaradi. Ikkinchi xalifasi Said ota (vaf. 1218-19) asli xorazmlik bo‘lib, u haqda ko‘p ma‘lumot saqlanib qolmagan. Uchinchi xalifasi Sulaymon Hakim ota bo‘lgan.

O‘zbek tasavvuf adabiyoti yassaviylik tariqati bag‘rida dunyoga keldi. Shuning uchun professor Abdurauf Fitrat bu hodisani “yassaviylik adabiyoti”, “xonaqoh adabiyoti”, deya nomlagan edi. Shuning uchun Abdurauf Fitrat – birinchi o‘zbek yassaviyshunosi, degan e‘tirofqa loyiq. Uning “Devoni hikmat” tili, uslubi, Xoja Ahmad Yassaviyning ta‘sirida hikmat maktabining davom etganligi haqidagi fikrlari yassaviyshunoslik sohasidagi keyingi tadqiqotlar uchun zamin tayyorladi.[2]

Bugungi adabiyotshunoslikda hikmat an‘anasi va Yassaviy maktabi izdoshlari ijodi tarixiy-tipologik, tasavvufiy-falsafiy, filologik-poetik yondashuvlar asosida tadqiq etilmoqda. Tadqiqotlarda hikmat janri o‘zbek adabiy tafakkurining milliy ildizlari, ma‘naviy merosi va axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim adabiy hodisa sifatida baholanmoqda. Ahmad Yassaviy ijodi ta‘sirida hikmatnavislik an‘anasining paydo bo‘lishi, XII asrdan XIX asrgacha tadrijiy davom etganligi hikmatnavis shoirlar ijodi asosida isbotlangan tadqiqot ham mavjud.

Abdurauf Fitrat “Chig‘atoy adabiyoti” deb nomlangan tadqiqotida XIII-XVI asrlar o‘zbek adabiyotini shu nom bilan ataydi, uni uch qismga ajratadi: doston adabiyoti, yassaviylik adabiyoti, saroy adabiyoti. Ahmad Yassaviydan so‘ng uning ta‘sirida davom etgan adabiy yo‘nalishni “yassaviylik adabiyoti” deb ataydi. Ma‘lumki, Xoja Ahmad Yassaviydan so‘ng u boshlab bergan uslub va ruhda hikmat aytish an‘anasi paydo bo‘ldi.

O‘zbek tasavvuf adabiyoti tarixidagi muhim hodisalardan biri bo‘lgan hikmatnavislik maktabi shakllandi hamda bu an‘ana XIX asrgacha o‘nlab shoirlar tomonidan davom ettirildi. [7.80]

Abdurauf Fitrat ham o‘z maqolasida g‘oya, mavzu va shakl jihatidan Xoja Ahmad Yassaviyga izdoshlik qilgan Sulaymon Boqirg‘oniy, Shams O‘zgandiy, Iqoniy, Qul Ubaydiy, Qul Ahmad, Xudoydod, Qul Sharif singari izdoshlarga doir ayrim ma‘lumotlarni keltiradi. Fuod Ko‘prulidan farqli tarafi u Yassaviy maktabi shoirlari haqida “Rashahot”, “Samarat ul-mashoyix”, “Lamahot”, “Muzakkirul-ahbob” singari muhim manbalarga tayanib xabar beradi. Masalaning ahamiyati maqolaning sarlavhasida ham namoyon bo‘lgan. [3]

Turk olimi F. Ko‘prulizoda o‘zining “Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar” nomli kitobida Ahmad Yassaviyning manoqibiy va tarixiy hayoti, tariqati, xalifalari, “Devoni hikmat” asari va uning ta’sir ko‘lamiga doir fikr-qarashlari o‘z aksini topgan. Asarning “Yassaviy va uning izdoshlari” deb nomlangan bo‘limida “buyuk pir”ga ergashib hikmat yozgan Sulaymon Boqirgoniy, Qul Shamsiddin, Xudoydod, Iqoniy, Qul Ubaydiy, Faqiriy, Bayzo, Behbudiy, Shuhudiy, Qul Sharifiy, G‘ado, G‘azzoliy, Tufayliy, Qosim, Mashrab, Xuvaydo singari O‘rta Osiyolik shoirlar nomini tilga oladi. Birgina shu bo‘limning o‘zida bu mavzuga doir quyidagi masalalarga o‘z munosabatini bildiradi:

1. Xoja Ahmad Yassaviydan so‘ng u zotning tariqatiga mansub darveshlar orasida uning uslubida hikmat yozish bir an‘anaga aylanganligi;
2. Yassaviyning hikmatnavislik an‘anasi XX asr boshlarigacha davom etganligi;
3. Yassaviy izdoshlarining barmoq she‘r tizimi bilan birga aruz vaznini ham keng qo‘llashlari XVI asrdan, ya‘ni Navoiy davridan so‘ng amalga osha boshlaganligi;
4. Ahmad Yassaviydek so‘fiyona hikmatlar yozish faqatgina adabiy va individual ijodiy hodisa emasligi, balki Yassaviylikning o‘ziga xos odobiga aylanganligi.

Anglash mumkinki, Fuod Ko‘prulu bu masalani Abdurauf Fitrat hamda Abdurahmon Sa‘diy singari “Yassaviy adab maktabi”, “Yassaviy maktabi shoirlari” emas, “Yassaviy izdoshlari” deya ataydi. Masalaga adabiy maktab nuqtai vanazaridan emas, izdoshlik va an‘ana tarafidan yondashishni afzal biladi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, hikmatnavis izdoshlar haqida gap borganda A.Navoiyning “Nasoyimul-muhabbat” asarida tilga olingan shoirlarni sanab ko‘rsatdik. Ushbu shoirlar haqida yozar ekan, hikmatlarning adabiy tahliliga yoki poetikasiga to‘xtalmasligining sababi hikmatlarning aniq bir qo‘lyozma nusxasi yo‘q ekanligidir. Navoiy hikmatlar haqida alohida to‘xtalmasada, lekin muhim bir yanglishlikni tuzatib ketadi. “Avvallari yozilgan diniy-tasavvufiy, tarixiy va madaniy asarlarda Sulayman Hakim Ota va Hakim Otaning boshqa boshqa shaxslar deb ko‘rsatilganligi xatolik, aslida ular bitta shaxs ekanligi haqida so‘nggi nuqtani qo‘ydi. “Hakim Ota, Ota Suleymandir. Xoja Ahmad Yassaviyning murididir”.

O‘zbek professori N.Hasan Shayboniyxon va Ubaydullaxonning Yassaviyga ergashib yozgan she‘r va hikmatlarini XVI asr o‘zbek adabiyotidagi “yassaviy an‘analari” sifatida tadqiq etadi.

Yassaviyshunos olim N.Hasanning “Yassaviylikka doir manbalar va “Devoni hikmat” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi yassaviyshunoslikka oid ko‘plab masalalarning yoritilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Olim Xoja Ahmad Yassaviyning tarixiy xizmatlari – islom dini allomasi, ilk turkiy tariqat asoschisi, murabbiy, turkiy tasavvuf she‘riyatining asoschisi, hikmatnavislik an‘anasining asoschisi ekanligida, deya baholaydi.

Tadqiqotchi N.Hasan dissertatsiyasining IV bobi “Hikmatnavislik an‘anasining davom topishi” deb nomlangan. Unda olim Yassaviy izdoshlarini uch guruhga bo‘ladi:

1. Yassaviy yo‘lida hikmat yozgan shoirlar (Sulaymon Boqirg‘oniy, Tosh Xoja, Bobo Mochin, Zangi ota, Said oto, Kamol Shayx Iqoniy, Shams O‘zgandiy, Ubaydiy, Qul Sharif, Shayx Xudoydod Valiy, Darvesh Ali, Xoja Ne‘matulloh, Qul Umuriy, Shahidiy, Sayyid ota, Qul Naziriy, Zaliliy, Hakim Xolis Toshkandiy, Yusuf Bayzoviy, Azim xoja eshon, Qul Asad, Qul Sayfiddin, Bayzo, G‘izoliy, Sobiriy, Shuhudiy, Xoja Hamid, Qoniy, Qul Shaydo, Xoja Bahouddin, Qul Ojiz, Qul Foziliy, Soqiy, Miskin Ayub va boshqalar);

2. Ulug‘ adib fikr-qarashlaridan ta’sirlangan mutasavvuf adiblar Maxtumquli, Mavloquli, Qul Ali, Mashrab, Sayqaliy, Majzub Namangoniy, Huvaydo Chimyoniy, So‘fi Olloyor kabilar;

3. Tasavvuf maslagida Yassaviy qarashlarini davom ettirgan Qutbiddin Haydar, Bahouddin Naqshband, Xoja Boyazid, Xoja Xalil, Sadr ato, Keshlig‘ ato, Sayyid ato, Bobi mo Husayn, Zangi ota, Husayn shayx, Jonibek sulton, Abdusaidxon, Muhammad Azizon, Shayx Obid, Shayx Zakariyo Yassaviy, Solih mufti kabi mutasavvuf ijod ahlidir. [7.72]

Sulaymon Boqirg‘oniy, Zangi ota, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydiy, Azim xoja eshonning zikri arra, irfon va oriflik, nafsni tiyish, eranlarga til tekkizmaslikka doir hikmatlar qiyosiy usulda tahlil qilingan.

“Hikmatnavislik an‘anasi” atamasi birinchi marta I. Haqqulov tomonidan ilmiy iste‘molga kiritildi. N.Hasan doktorlik dissertatsiyasining IV bobida hikmatnavislik an‘anasining davom topishini ilmiy jihatdan yoritib berdi. Shundan so‘ng o‘zbek mumtoz adabiyotida hikmatnavislik an‘anasi va tadriji hodisasi yuzasidan monografik ko‘lamda tadqiqotlar amalga oshirildi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida hikmatnavislikning tug‘ilishi va yoyilishi asosan Xoja Ahmad Yassaviy tasavvuf maktabi bilan bog‘liqdir. Uning hikmat an‘analari va shogirdlaridagi yassaviyona uslub bu janrning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Yassaviy shogirdlari sodda, tushunarli, mazmunan uyg‘un hikmatlar yaratgan, bu esa xalq tasavvufi adabiyotining til va dunyoqarashini belgilagan. F.Kopruli haqqoniy baholaganidek, Yassaviyning turkiy xalqlar tarixidagi ahamiyati faqatgina besh-o‘n parcha yoki bir necha jild tasavvufiy she‘rlar yozgan qadimiy bir shoir ekanligida emas, islomiyat

turkiylar orasida tarqala boshlagan asrlarda, ular orasida ilk marotaba bir tasavvuf maslagini vujudga keltirib, ruhoniyatda yuz yillar mobaynida hukm surganligidadir.

Ahmad Yassaviy ijodiy an'analari, keyinchalik devoni hikmatlar tarzida yozilgan asarlar orqali adabiyotda mustahkam o'rin olgan. O'zbek xalq qo'shiqlari, maqollar, hikmat va nasihatlar asrlar davomida og'zaki ijoddan yozma shaklga o'tgan. Bu jarayon natijasida hikmatnavislik elementlari devonlar, qo'shiqlar, ruboiylar, misralar adabiyotda o'z aksini topgan. Hikmatlar esa maqollarga qaraganda kengroq falsafiy mazmuni o'zida mujassamlashtiradi: hayot, axloq, vaqt va insoniy taraqqiyot haqida chuqur tushunchalarni beradi.

**Xulosa.** Xoja Ahmad Yassaviy va uning maktabi izdoshlari o'zbek adabiyotida hikmat an'anasining shakllanishi, rivoji va davomiyligini ta'minlagan asosiy ijodiy kuch hisoblanadi. Hikmat janri orqali tasavvufiy g'oyalar xalq ongiga singdirildi, adabiyot esa ma'naviy tarbiya vositasi sifatida yuksak bosqichga ko'tarildi. Yassaviy maktabi izdoshlari bu an'anani saqlab qolish bilan birga, uni yangi tarixiy-madaniy sharoitlarda rivojlantirib, o'zbek adabiy merosining uzluksizligini ta'minladilar. "Devoni hikmat"ni umuman, hikmatlarni o'qir ekanmiz ushbu janr zaminida diniy, axloqiy masalalarni adabiyot bilan uzviy bog'langanligini ko'ramiz. Bu esa janrning ta'sirchanligi va tarbiyaviyligini oshirib beradi. Hikmatlarning mavzu va uslub jihatidan xalqchil uslubda nozik tarbiya berish uchun yechim deb hisoblasak arziydi. Chunki hikmatlarda berilgan masala va yechimlar hali hanuz o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. – B.180.
2. Fitrat. Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar. Maorif va o'qitguchi jurnali. 1928
3. N.Hasan. Yassaviylik doir manbalar va "Devoni hikmat" Filol.fan. dok...diss. T. – 2017. – B. 26
4. M.Eshmuhammedova. "Yassaviy maktabi shoirlari" maqolasi. . [www.journal.fledu.uz](http://www.journal.fledu.uz)
5. N.Hasan. Yassaviylik doir manbalar va "Devoni hikmat" monografiya. T. – Akademnashr. 2012. – B. 145
6. I.Mannopov. Yassaviylik adabiyoti genezisi va badiiyati filologiya fanlari doktori diss. Farg'ona, 2024 . – B. 22 -78